

MUSIQIY FOLKLORDA QORAQALPOQ ALLASI (HÁYYIWI): GENEZISI VA JANR XUSUSIYATLARI**Orazalieva Guljayna**

“Musiqi san’ati” ixtisosligi 1-kurs magistranti

Tursunova R.A.Ilmiy rahbar: “Musiqi tarixi va tanqidi” kafedrası dotsenti,
san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).<https://doi.org/10.5281/zenodo.18402453>

Annotatsiya. Mazkur maqola qoraqalpoq musiqiy folklorining fundamental janri hisoblangan alla (háyyiw) fenomenini musiqashunoslik va etnomusiqashunoslik prizmasi orqali tadqiq etishga bag’ishlangan. Ishda janrning arxaik-mifologik ildizlaridan tortib, zamonaviy professional san’at va media-madaniyatdagi transformatsiyasigacha bo’lgan taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: qoraqalpoq musiqasi, alla, háyyiw, folklor genezisi, musiqiy-poetik sinkretizm, kompozitorlik talqini, marosim folklori.

Insoniyat tarixida ona ovozi kabi samimiy, ona duosi kabi qudratli va ona allasi kabi ta’sirchan biror ohang bo’lmasa kerak. Alla — bu shunchaki oddiy qo’shiq emas, balki ona qalbining eng sof tebranishi, uning mehr-muhabbati, umidi va duosidan yaralgan musiqiy iboradir. Go’dakning hayotida eshitgan ilk ohangi ham, dastlabki ruhiy tayanchi ham aynan ona allasidir.

Shu boisdan xalqimiz allani nafaqat estetik hodisa, balki bebaho tarbiyaviy boylik, ma’naviy meros va ona-bola o’rtasidagi rishtalarni mustahkamlovchi noyob janr sifatida qadrlaydi. Ona allasi – bu beshik tebranishi bilan uyg’unlashgan, xotirjamlikka yo’g’rilgan va butun borliqni mehr bilan quchgan musiqiy olamdır. Har bir allaning zamirida xalqning ming yillik tajribasi, ma’naviy dunyosi va tarbiyaviy qarashlari yotadi. Alla nafaqat go’dakni ovutadi, balki uning ongiga ilk qadriyatlarni singdirib, kelajak shaxsining ruhiy poydevorini yaratadi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino o’zining “Kitob ush-shifo” asarida bola tarbiyasiga alohida to’xtalib, shunday deydi: bolaning mijozini mo’tadillashtirish uchun unga ikki narsa zarur. Birinchidan, bolani mayin tebratish, ikkinchidan, uni uxlatish uchun odat tusiga kirgan kuy ohangi bilan alla aytish. Shu ikki omilni qabul qilish miqdoriga qarab, bolada jismoniy tarbiyaga va ruhiy jihatdan musiqaga bo’lgan qobiliyat shakllanadi.

Qoraqalpoq etnomusiqiy an’anasida alla janrining genezisi bevosita xalqning mifologik tasavvurlari va muayyan etiologik afsonalar (kelib chiqish haqidagi rivoyatlar) bilan dalillanadi.

Qoraqalpoq musiqiy folklorida alla janrining vujudga kelishi va uning ontologik (mavjudlik) mohiyati haqida o’ziga xos narrativlar mavjud.

Afsonaning bosh g’oyasi shundaki, ona suti tanani shakllantirsa, ona allasi ruhni tanaga bog’lab turadi¹. Rivoyatlarda onaning o’z qiziga “hech bir farzandingga alla ayta olmagaysan” deb qarg’ishi (yoki shart qo’yishi) — uni musiqiy himoyadan mahrum qilish bilan barobar edi.

Bolalarning ketma-ket nobud bo’lishi esa qizning onani rozi qilmay turmushga chiqqani bilan izohlanadi.

Xususan, xalq orasida keng tarqalgan “Ona duosi va alla” haqidagi afsona ushbu janrning nafaqat badiiy-estetik, balki sakral-terapevtik funksiyasini ham ochib beradi. Rivoyatda qizning onasi tomonidan qo’yilgan “alla aytmaslik” sharti — bu madaniy-ijtimoiy taqiq (tabu) bo’lib, u

¹ Карақалпақ фольклорлары 77-том. Мифлер хэм мифлескен әпсаналар

janrning ona va bola o'rtasidagi metafizik bog'liqlikni ta'minlovchi asosiy vosita ekanligini tasdiqlaydi. Farzandning hayot va mamot chegarasidagi holati hamda ona allasi ("Hoy-hoy" sadosi) natijasida hayotga qaytishi, musiqashunoslikda musiqiy intonatsiyaning energosentrik tabiati bilan izohlanadi. Ya'ni, alla shunchaki matn va kuy yig'indisi emas, balki hayotiy quvvatni uzatuvchi musiqiy-sehrli (magik) vositadir.

Afsonadagi onaning tushida bergan ruxsati va kelinchakning ongsiz ravishda (ingrab) alla ayta boshlashi musiqiy ijodning ekstatik va katartik (ruhiy poklanish) xususiyatlaridan dalolat beradi. Afsonada tilga olingan va go'dakka jon baxsh etgan o'sha sehrli sado — qoraqalpoq xalqi orasida "Háyýiw" nomi bilan mashhur. Musiqashunoslik nuqtayi nazaridan, "Háyýiw" atamasi allaning meditatif tabiatini va uning chuqur lirik-falsafiy mazmunini ifodalovchi asosiy tushunchadir.

Qoraqalpoq musiqiy folklorining fundamental janrlaridan biri bo'lgan beshik qo'shiqlari ilmiy obyekt sifatida ilk bor taniqli turkiyshunos olim N.A. Baskakov diqqat markazida bo'ldi².

Olim o'z tadqiqotlarida ushbu janrning lingvo-folklorik xususiyatlariga to'xtalib o'tgan bo'lsa, keyinchalik N. Davqarayev qoraqalpoq folklorini tizimli tasniflash (klassifikatsiya) jarayonini boshlab berdi³.

N. Davqarayev o'z konsepsiyasida xalq og'zaki ijodini epik va lirik turlarga ajratgan holda, lirik janrlar tarkibida she'riy shakllarga alohida urg'u beradi. Shunisi ahamiyatliki, olim beshik va bolalar qo'shiqlarini bevosita urf-odat (marosim) folklori tizimida ko'rib chiqadi.

Garchi o'sha davr ilmiy qarashlarida folklor asarlariga xalqning etnografik tarixi va maishiy hayotining ko'zgusi (og'zaki adabiyot) sifatida qaralgan bo'lsa-da, N. Davqarayev janrning o'ziga xos musiqiy-intonatsion tabiatini, ijro xususiyatlari va ohang strukturasini alohida e'tirof etgan. Olim folklor va etnografiyaning o'zaro dialektik bog'liqligidan kelib chiqib, "an'ana" atamasini janrning barqarorlik belgisi sifatida qo'llaydi. Qiyosiy-tarixiy metodga tayangan holda, u boshqa xalqlar adabiyotidagi o'xshash hodisalarni tahlil qiladi va beshik qo'shiqlarining mustaqil musiqiy-poetik janr ekanligini ilmiy jihatdan dalillaydi. Shu tariqa, N. Davqarayev asarlari qoraqalpoq allashunosligining (Háyýiw ijodiyotining) nazariy poydevorini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

Alla (Háyýiw) — an'anaviy xalq qo'shiqlari tizimida nafaqat tarixiy barqarorligini saqlab qolgan, balki zamonaviy musiqiy hayotda ham o'zining funksional va estetik ahamiyatini yo'qotmagan mustaqil janrdir. Ushbu janrning o'ziga xosligi, eng avvalo, uning intonatsion-melodik tabiatida namoyon bo'ladi. Beshik qo'shiqlarining musiqiy komponentlari (ohang, ritm, sur'at) matn bilan uzviy sinkretik bog'liqlikda bo'lib, asarning umumiy emotsional mazmunini shakllantirishda teng huquqli omil bo'lib xizmat qiladi.

Alladagi kuy — shunchaki fon emas, balki psixofiziologik ta'sir o'tkazuvchi asosiy vositadir. Agar asar matniga onaning subyektiv fikr-mulohazalari, tilak va armonlari, kelajakka bo'lgan orzulari yuklangan bo'lsa, musiqa va kuyning ohangi ushbu mazmunni "jonlantiradi", uning dinamikasini ta'minlaydi hamda bevosita obyektga (bolaga) kuchli emotsional ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

² Баскаков Н. Каракалпакский язык. Том 1. М., 1991.

³ Дәуқараев Н. Революцияға шөкемги қарақалпақ әдебияты тарийхының очеркleri- Нөкис, Қарақалпақстан, 1961.

Alla ijodkorligi o'ziga xos improvizatsion xarakterga ega. Ona farzandining kelajagi va istiqboli haqidagi ezgu niyatlarini an'anaviy musiqiy qoliplar (formulalar) bilan uyg'unlashtirib, o'sha lahzada yangi bir musiqiy-she'riy namunani vujudga keltiradi.

Shu tariqa, alla bolaning ilk yoshidanoq uning ongi va ruhiyatiga milliy tarbiya mezonlarini, axloqiy va estetik tushunchalarni intonatsion kodlar orqali singdirishning o'ziga xos "musiqiy-pedagogik" instrumentiga aylanadi.

*Aynalayin appagim-ay,
Qizlar kiygen qalpagim-ay,
Qatarinnan kem bolma-ay,
Ashulgay balam bul baxtin-ay.*

Qoraqalpoq an'anaviy "Hayyiwi"i o'zining monodik tabiatli tuzilishi va o'ziga xos intonatsion xususiyatlari bilan ajralib turadi. Janrning musiqiy asosi, qoida tariqasida, tor diapazonli (ko'pincha tersiya yoki kvarta doirasida) bo'lib, bu holat uning arxaik folklor qatlamiga mansubligidan hamda sof vokal-maishiy vazifasidan dalolat beradi. Kuy rivoji asosan pastga yo'nalgan intonatsiyalarga tayanadi. Takrorlanuvchi musiqiy frazalar va ohangning pastga qarab bosqichma-bosqich pasayib borishi tinglovchida (bolada) meditatif holatni vujudga keltirib, psixofiziologik jihatdan uyquga chorlovchi, tinchlantiruvchi ta'sirni (sedative effect) yuzaga chiqaradi. Bu esa janrning funksional-pragmatik maqsadiga to'liq mos keladi.



"Hayyiwi"ning ritmik strukturasi o'ta aniq va mantiqiy simmetriyaga asoslangan. Kuyda asosan yarim, chorak va nimchorak (sakkizlik) cho'zimlarining binar (juftlik) nisbatlari qo'llaniladi. Bunday ritmik qolip beshikning bir maromdagi tebranish harakatini musiqiy vositalar orqali imitatsiya qiladi. Ritmik unsurlarning soddaligi va izchilligi ijro jarayonida ona uchun improvizatsiya imkoniyatini yaratadi hamda kuylashning tabiiy, nutqdosh xarakterini ta'minlaydi.

Ona (yoki buvi) o'z bolasini maqtaydi va uni eng go'zal sifatlar bilan ta'riflaydi ("Aynalayin appagim-ay" – oynadek porloq oppog'im; "qizlar kiygen qalpagim-ay" – qizlar kiygan qalpoqchog'im). Bolaning doimo baxtiyor bo'lishi tilanadi ("bul baxtin-ay" – bu baxting-a; "Qatarinnan kem bolma-ay" – qatoringdan kam bo'lma). Bola tabiat go'zalliklari bilan qiyoslanadi ("Aqtamagin bilkildebay, Sayragan bagda bilbilim-ay" – oq tog'dagi burgutdek, sayragan bog'dagi bulbulek). Qo'shiqning muhim qismi bo'lgan "Hay-yiw, hay-yiw, hay-yiwim-ay" tovushlari alla aytishning eng xarakterli va his-tuyg'uga to'yingan qismidir. Bu tovushlar bevosita tebranish harakati bilan bog'liq bo'lib, bolani tinchlantirish va uyquga chorlash vazifasini bajaradi.

Zamonaviy musiqiy jarayonlarda an'anaviy alla janri professional kompozitorlar ijodida yangicha talqin va badiiy shakl kasb etmoqda. Xalq ohanglarini akademik musiqiy vositalar yordamida qayta ishlash (obrabotka) va ularni turli cholg'u hamda vokal tarkiblar uchun moslashtirish natijasida mazkur janrning janrlararo transformatsiyasi yuz bermoqda.

Bu borada kompozitorlarning asarlari nota to'plamlari holida nashr etilishi qoraqalpoq professional musiqasining boyib borishiga xizmat qiladi.

Xususan, taniqli qoraqalpoq kompozitori Sh. Paxratdinovning ovoz va fortepiano uchun mo'ljallangan "Alla" asari ushbu janrning akademik sahnadagi yorqin namunalaridan biridir.

Ushbu kompozitsiyada muallif allaning an'anaviy intonatsion asoslarini saqlab qolgan holda, uni fortepiano fakturasi orqali boyitadi. Kompozitor Sh. Paxratdinov o'zining fortepiano uchun mo'ljallangan "Háyyiw" asarida an'anaviy alla janriga xos bo'lgan lirik-psixologik holatni akademik ijrochilik vositalari orqali mahorat bilan ifoda etgan.

Piesa Re-major tonalligida yozilgan bo'lib, uning umumiy konsepsiyasi vazminlik va meditatif sokinlikka asoslangan. Asar uchun tanlangan 6/8 o'lchovi alla janrining tabiatiga xos bo'lgan tebranma harakatni ta'minlovchi eng optimal metrik asosdir. Moderato sur'ati esa asarning nafaqat maishiy, balki estetik-badiiy qiymatini oshirib, tinglovchida lirik mushohada uyg'otadi.



Asar fakturasi garmonik poydevor va melodik chiziqning o'zaro funksional bo'linishiga tayanadi:

1. Garmonik poydevor: Chap qo'l partiyasi ritmik tayanch vazifasini bajaradi.

Qo'llanilgan akkordlar kompleksi, ayniqsa 1, 3, 5 va 7-taktlardagi sinkopalashgan yoki tekis ritmik tuzilmalar beshikning fizik tebranishini musiqiy imitatsiya qiladi. Bu "tebranma" effekt piesaning janriy xarakterini belgilovchi asosiy komponentdir.

2. Melodik chiziq: O'ng qo'l partiyasidagi lirik melodiya garmonik sokinlik fonida ustuvorlik kasb etadi. U qoraqalpoq milliy "Háyyiw"lariga xos bo'lgan ohangdorlikni saqlab qolgan holda, lirik ifoda ko'lamini kengaytiradi.

Sh. Paxratdinovning asaridagi melodik chiziq asosan yuqori registrda lokallashgan bo'lib, bu musiqiy obrazning nafisligi va shaffofligini ta'minlaydi. Melodiyaning rivojlanishida uzoq davom etuvchi notalar (fermata yoki cho'ziq tovushlar) hamda mayin legato artikulyatsiyasi ustuvorlik qiladi. Ushbu uslubiy yondashuv an'anaviy alla janriga xos bo'lgan lirik va vokal tabiatli ohangdorlikni fortepiano fakturasida qayta gavdalandiradi. Asarning dinamik rejasi uning umumiy konsepsiyasiga xizmat qiladi.

Kompozitsiya yakunida dinamikaning pp (pianissimo) darajasigacha pasayishi asarning estetik nuqtayi nazaridan “intilish nuqtasi” hisoblanadi. Bu o'ta mayin va past ovozda aytiluvchi yakuniy intonatsiyalar alla janrining birlamchi funksiyasi — sokinlik, orom topish va tinib qolish holatini badiiy jihatdan muhrlaydi.

Qoraqalpoq musiqasining yirik vakili, kompozitor Qurbanbay Zaretdinov o'zining serqirra ijodida xalq og'zaki ijodi namunalariga yangicha talqin berish bilan ajralib turadi⁴.

Xususan, shoir O. Abdiraxmanov qalamiga mansub she'r asosida yaratilgan “Tirsekler” musiqali komediyasi uchun yozilgan asar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ushbu spektakl uchun kompozitor o'zbek va qoraqalpoq xalq qo'shiqlari ichida eng lirik va sokin janr hisoblangan “Háyyiw” kuyini tanlab oladi. Biroq, kompozitor bu an'anaviy lirik namunani komediya janri talablaridan kelib chiqib, janr transformatsiyasiga uchratadi.



Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, beshik qo'shiqlarida musiqa matn bilan chambarchas bog'liq bo'lib, janr yaxlitligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, alla (háyyiw) o'zining metroritmik barqarorligi, intonatsion qat'iyligi va emotsional-funksional yo'naltirilganligi bilan qoraqalpoq musiqiy folklorining mustaqil va yaxlit tizimini tashkil etadi.

Ko'rib turganimizdek, beshik qo'shiqlari hozirgi kunda ham jonli tarzda yashab kelmoqda. Ularning bajaradigan vazifasi va g'oyaviy mazmuni bir maqsadga – yosh bolani kelajakda odob-axloqli, mehnatsevar, ko'pchilikka namunali inson bo'lib yetishishga chorlashga yo'naltirilgan. Bu vazifani xonadondagi chaqalog'i bor insonlarning barchasi: keksa buvilar, ota yoki opalar ham bajarishi mumkin. Chunki ularning har biri farzandga o'z ko'nglidan chiqqan samimiy so'zlarni va tilaklarni bildiradi.

Chaqaloqlarga aytiladigan qo'shiqlarga e'tibor bersak:

Attim-battim,

Atta shaptim,

Aq otlawdan - Seni taptim,

Ata'ndi aytim - Ayrilqalpaq,

Baba'ndi aytim - Jayil jalpaq,

Qara - dedim, Qaraqalpaq,

Seni meni - Tiñlamadın,

Oyinshıgı'ndı - Jıynamadın!

Qoraqalpoq xalqining bolalar bilan bog'liq marosimlar tizimida “Beshik chopish” o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu marosim nafaqat etnografik hodisa, balki o'z ichiga boy musiqiy-poetik namunalarni qamrab olgan sinkretik janr hisoblanadi.

⁴ B.U Otarbaev, Ariyalar. Qaraqalpaq opera hám muzikalı dramalarınan. Nókis. Bilim, 2010.

Qoraqalpoq bolalar folklori namunalarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularga birinchilardan bo'lib nazariy sharh berish masalasi tadqiqotchi I. Qurbanboyev asarlarida o'z aksini topgan⁵.

Marosimning strukturaviy va funksional tahlili:

Ijtimoiy-yosh iyerarxiyasi: Marosimda asosiy rolni tajribali, ko'pni ko'rgan kayvoni onaxonlar egallaydi. Bu holat an'anaviy jamiyatda "ustoz-shogird" va "ajdodlar duosi" an'analari davomiyligini ta'minlaydi.

Ritual harakat va improvizatsiya: Marosimning kulminatsiyasi — chaqaloqni ilk bor beshikka yotqizish jarayonidir. Bunda chaqaloqni beshikka solish uchun niyat qilingan, el-yurt orasida obro'li inson tanlanadi.

Musiqiy-poetik komponent: "Beshik chopish" jarayonida har bir ishtirokchi beshik yoniga kelib, o'ziga xos improvizatsion (to'qima) she'riy satrlarni ma'lum bir ohang (retsitatsiya) yordamida ijro etadi. Ushbu "so'z qatorlari" mazmunan bolaga sog'liq, uzoq umr va kelajakda komil inson bo'lishi haqidagi ezgu niyatlarni (olqishlarni) o'z ichiga oladi.

*Háyyiw aytsam baláǵa,
Bas bilmegen tanaǵa,
Háyyiw aytsam jubansań,
Qaraǵım shawıp kiyatır,
Qıńır qırsıq bolsa da,
Úyin tawıp kiyatır.*

Bugungi kunda opalar shunday qo'shiq satrlarini yod olib, beshik to'ylarda "beshik chopish" an'anasini ijro etib kelmoqdalar. Zamonaviy qoraqalpoq musiqa madaniyatida alla (háyyiw) janri nafaqat maishiy-an'anaviy shaklda, balki mualliflik ijodi va vizual san'at (klipmeykerlik) sintezi sifatida yangicha bosqichga ko'tarilmoqda.

Agar an'anaviy folklorda har bir ona o'zining individual ichki kechinmalaridan kelib chiqib improvizatsiya qilgan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon professional badiiy loyihalar darajasida ommaga taqdim etilmoqda.

Bu yo'nalishdagi diqqatga sazovor namunalardan biri sifatida Hurliman Tileumuratova (O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Jenisbek Piyazovning turmush o'rtog'i)ning ijodiy yondashuvini ko'rib chiqish mumkin. U yaratgan musiqiy klip va mualliflik qo'shig'i qoraqalpoq ayolining ona sifatidagi ma'naviy qiyofasini zamonaviy talqinda ifodalovchi ijtimoiy-madaniy fenomendir.

Umumiy xulosa shundan iboratki, qoraqalpoq allasi (háyyiw) — o'zgaruvchan zamon talablariga moslashuvchan, ammo o'zining genezisidagi hayotbaxsh quvvatini saqlab qolgan, musiqiy-madaniy merosimizning eng hayotiy va emotsional qatlamidir.

Uning musiqiy tili va she'riy matni o'rtasidagi uzviy bog'liqlik qoraqalpoq milliy musiqa san'atining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Қарақалпақ фольклорлары 77-том. Мифлер ҳам мифлескен эпсаналар
2. Баскаков Н. Каракалпакский язык. Том 1. М., 1991.
3. Дәүкараев Н. Революцияға шекемги қарақалпақ әдебияты тарийхының очерклери- Нөкис, Қарақалпақстан, 1961.

⁵ Қурбанбаев И, Қарақалпақ балалар әдебияты тарихының очеркилери, Нөкис 1974.

4. B.U Otarbaev, Ariyalar. Qaraqalpaq opera hám muzıkalı dramalarınan. Nókis. Bilim, 2010.
5. Қурбанбаев И, Қарақалпақ балалар әдебияты тарихының очеркилері, Нөкіс 1974.